



## OMMAVIY SIYOSIY NUTQLARDA “PATOS” USULINING AHAMIYATI

**Abdusamatov Farruxbek**

O'zbekiston davlat jahon

tillari universiteti o'qituvchisi

e-mail: [farruxbekabdusamatov95@gmail.com](mailto:farruxbekabdusamatov95@gmail.com)

**Annotatsiya:** Maqola ommaviy siyosiy nutqlarda ishlatiladigan kuchli ritorik va diskursiv vosita – patos va uning umumiy tavsifini yoritib beradi. Patosning hissiy ta'sir o'tkazish roli, o'rni va ahamiyati haqida tahlil qilinadi. Misollar va izohlar orqali patos siyosiy nutqning ta'sirchanligini oshirishi va siyosiy doiradagi go'yalarni qabul qilishga undovchi kuch sifatida yoritiladi.

**Kalit so'zlar:** patos, hissiy chaqiriq, stilistik vosita, emotsional ifoda, siyosiy ritorika, siyosiy-diskursiv resurs.

Ommaviy siyosiy nutq bu nafaqat g'oyalarni bayon qilish, balki ijtimoiy ongni nazorat qilish va boshqarish vositasi hamdir. Siyosiy ritorikaning mahsuldorligi va sifatini ta'milashda esa odatda hissimy chaqiriqlar deb ataluvchi birliklar (patos) va freyming strategiyalar muhim ahamiyat kasb etadi. Siyosatchilar, davlat rahbarlari va siyosiy yetakchi shaxslar bunday strategiyalardan oqilona foydalangan holda auditoriyani jonlantiradi, harakatlarga undaydi va ularning ishonchini qozonadilar.

Patos yoki hissiy chaqiriqlar bu auditoriyaning his-tuyg'ulariga ta'sir qilish orqali ularni bir ijtimoiy g'oya yoki siyosiy pozitsiyani qabul qilishga undovchi metod hisoblanadi. Zamonaviy siyosiy ritorikada esa patos tinglovchilarni jonlantirish, milliy



hamjihatlikka undash va harakatga chorlovchi eng kuchli metodlardan biri sanaladi. Patos odatda tinglovchilarda qo’rquv, g’urur-iftixor, achinish, umid, quvonch hislarini uyg’otish asosida ishlaydi. Patos bu ommaviy nutqlarda eng ko’p qo’llaniladigan usul bo’lib, fojia, tarixiy qahramonliklar, milliy bayramlar va qadriyatlar, urush kabi mavzularda so’z yuritishda ishlatiladi. Aristotel patosga ta’rif berib, uni “tinglovchilarning ruhiy holatini shakllantirish” deb aytadi (Demirdogen, 2020). Masalan, Vladimir Putinning 2022-yildagi “Victory Day” nutqida shunday deydi: “Ajdodlarimiz jasorat bilan bu yerda qon to’kdi, biz ularning izidan yuramiz”, degan jumla patosning yorqin namunasidir (Boginskaya, 2023). Shu bilan birga, Amerika Prezidenti Donald Trampning nutqida “They are coming for you. I’m standing in their way” ifodasi bor va bu iboralar himoyachilik va qo’rquv birikmasini tashkil qilgan (Dollinger, 2021). Barak Obamaning ommaviy nutqlarida qo’llaniladigan “we can overcome” birliklari ham patosni aniq ifodalab turadi (Alvi va Baseer, 2012).

Patos usulidan siyosiy arboblardan, jumladan davlat rahbarlari o’zlarining murojaatlarida strategik ravishda oqilona foydalanishadi va ular patos elementlari bo’lgan hissiyotlar va hissiy chaqiriqlar orqali xalqqa nafaqat nima qilish kerakligini, balki nega shu yo’ldan yurish muhimligini ham tushuntirishga muvaffaq bo’lishadi. Patos siyosiy ritorikada ko’pincha “xalq”, “bola”, “azob”, “tarix”, “tinchlik”, “kelajak” kabi ma’no jihatidan kuchli emotsional kuchga ega bo’lgan kalit so’zlar yoki birikmalar aytish orqali amalga oshadi. Notiqning chiqishida patos strategiyasi ustunlik qilganda, u “biz” shaklida, metafora, parallelizm, his-hayajon gaplar, anafora, shaxsiy hikoyalar va tarixiy voqealarni insonlar ko’z oldiga keltirish, gavdalandirish kabi unsurlar orqali ifodalanadi. Misol sifatida keltirish mumkinki, Shavkat Mirziyoyev patosni o’z nutqlarida xalqparvarlik va porloq kelajak tushunchalari orqali yuzaga chiqaradi. Uning nutqlarida “xalqimiz azob chekdi, lekin endi umid bor” degan tarzda jumlar mehnat, g’amxo’rlik, barqarorlik va qadriyatlarni emotsional hissiy rezonans bilan uyg’unlashtiradi. Bunday holatda patos xalqni ruhlantirish vositasi emas, balki siyosiy resursga aylangan, chunki u fuqarolarning



siyosiy irodasi, qobiliyatlarini harakatga keltiradi, ko’pincha siyosiy doirani hissiy darajada ta’minlaydi va haqiqatga nisbatan ijtimoiy kelishuvni yuzaga keltiradi. Patos siyosiy nutqda faqat hissiy ohangda emas, balki omma ichidan chiqqan obrazlar, vizual tasvirlar va dramatik syujetlar orqali ham yuzaga chiqadi. Siyosiy yetakchi shaxslar odatda ulug’vor g’alabalar, tarixdagi adolatsizliklar yoki xalqning azob-uqubatlarini eslatish orqali patosning sifatini kuchaytiradi.

G.E. Marcus ta’kidlab shuni keltiradiki, siyosiy qarorlar ko’pincha ratsional ravishda amalga oshirilgan hisob-kitob, tahlillarga emas, balki qo’rquvlar, identitet, umidlar va qadriyatlarga asoslanib hal qilinadi. Siyosiy arboblarning vatanparlik (patriotism) iftixor, hamdardlik, g’azab singari emotsional tuyg’ularni uyg’otish orqali siyosiy ishtirokni oshirishga astoydil bel bog’lashadi. J. Waldron immigratsiya yoki milliy xavfsizlik to’g’risidagi qo’rquvga asoslangan chaqiriqlar ko’pincha tez-tez uchraydi, bu esa qat’iyatga asoslangan siyosatni qo’llab-quvvatlashga olib keladi. Masalan, O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2024-yil 21-martdagi Navro’z bayrami nutqidan quyidagi jumlaning keltiramiz: “Navro’z – bu qalbimizdagi mehr-oqibat, va saxovat tuyg’ularining uyg’onishidir. Bu kun – xalqimizning quvonchi, orzu-umidi bayramidir”. Bunda patos elementlari, ya’ni “mehr oqibat”, “qalbdagi saxovat” va “orzu-umid bayrami” birliklari orqali ommaga ruhiy ko’tarinkilik va hamjihatlik ifoda qilinadi. Ommaning tasavvurida iliqlik, ijobiylik va nutq qiluvchi shaxsga nisbatan insoniylik hislari ortadi.

Patos ommaviy siyosiy nutq qilishda omma orasida emotsional yaxlitlik va siyosiy mobilizatsiyani ushlab turish uchun ham xizmat qiladi (Charteris-Black, 2011). Patos notiqqa o’z auditoriyasini yaxshilab o’rganish va kuzatish imkoniyatini berib, maqsadli strategiyalarni ham ishlab chiqadi. Masalan, taniqli tilshunos olim G. Lakoff tasdiqlaydiki, Amerika Prezidenti Donald Tramp o’zining bir nutqida “ular sizdan ishlaringizni olib qo’ymoqda”, “biz chegaralarimizni yo’qotmoqdamiz” singari qo’rquv, hadik uyg’otuvchi ritorik vositalarni qo’llagan holda milliy g’amxo’rlik, xavotir tuyg’usini ko’zda tutadi. Bu



birliklar orqali u dushman obrazini gavdalantirib, tinglovchilar ongida shu dushmanga qarshi birlashish, uyushish kerakligi tushunchasini uyg'otadi.

Siyosiy patos faqat manipulyatsiya qilish usuli bo'libgina qolmasdan, u omma bilan hamdardlik asosida muloqot qilish usuli ham hisoblanadi. Masalan, Angela Merkel 2015-yilda Germaniyada o'z chiqishida qochqinlar inqirozi vaqtida umuminsoniy qadriyatlarga chorlab, “Biz buni uddalaymiz” (“Wir schaffen das”) deydi va bu ibora bilan u kuchli emotsional ohang (mikroiqlim) yaratgan edi. Bu bilan u nafaqat siyosiy jihatdan mas'uliyatni o'z zimmasiga oldi, balki omma orasida hamjihatlik, umid va kengbag'irlilik hislarini uyg'otadi.

Quyidagi jadvalda patos, ya'ni hissiy chaqiriqlarning Prezidentlar tomonidan qo'llanilishi va stilistik izohlari keltirilgan:

| Prezident nomi     | Hissiy chaqiriq                                   | Stilistik vosita                | Maqsadi                                              |
|--------------------|---------------------------------------------------|---------------------------------|------------------------------------------------------|
| Shavkat Mirziyoyev | “Davlat xalqdan rozilik olishi kerak”             | Aksiomatik birikmalar           | Davlatni insoniylashtirish                           |
| Barak Obama        | “Yes, we can!”                                    | Takror (anafora)                | Birlik, Umid bog'lash                                |
| Emmanuel Macron    | “Nour sommes en guerre” (“Biz urush holatidamiz”) | Metafora                        | Milliy safarbarlik, jiddiylik, birdamlikka chaqirish |
| Joe Biden          | “This is not who we are”                          | Kollektiv identitet + Negatsiya | Axloqiy barqarorlikni tiklash                        |



| Prezident             | Emotsional Ifoda                                                    | Leksik vosita                | Diskursiv maqsad                                     |
|-----------------------|---------------------------------------------------------------------|------------------------------|------------------------------------------------------|
| Shavkat<br>Mirziyoyev | “Orzu-umid<br>bayram”, “qalbdagi<br>saxovat”                        | Metafora + poetic<br>so’zlar | Ruhiy<br>ko’tarinkilik,<br>hamjihatlik,<br>birdamlik |
| Emmanuel<br>Macron    | “...Bury loved<br>ones”, “...shadow<br>of bombs”                    | Dramatizm,<br>parallelizm    | Empatiya,<br>insonparvarlik                          |
| Joe Biden             | “...Lost everything<br>in wildfires...yet<br>stood up...”           | Epitet, narrativ             | Milliy ixtiyor,<br>Vatandoshlar<br>uyg’unligi        |
| Vladimir Putin        | “...Biz jasoratli<br>ajdodlarimiz<br>xotirasini<br>sharaflaymiz...” | Aksiomatik<br>birliklar      | Milliy faxr, tarixiy<br>xotira                       |

Demak, yuqoridagi jadvaldan shu narsa ko’rinib turibdiki, hissiy chaqiriqlar, ya’ni patos elementlari stilistik jihatdan metafora, anafora, aksiomatik birikmalar va negatsiyalardan iborat bo’lar ekan. Fransiya Prezidenti Emmanuel Makron 2020-yil COVID-19 davrida ommaga murojaat qilib, ko’p marta “Nour sommes en guerre” (“Biz urush holatidamiz”) birikmasini ishlatadi. Bu metoforik birliklar milliy xavf-xatar oldida turgan vaziyatni yoki jiddiy tahdidga ishora qilib, COVID-19 pandemiyasiga qarshi kurashishni urushga qiyoslab, butun xalqini birlikka va hamjihatlikka chorlagan. Bu ham patosning yorqin namunasidir. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ham “Davlat xalqdan rozilik olish kerak” deya majoziy holatda “davlat” so’ziga “insoniylik timsoli” sifatida ifoda etadi. Bu esa o’z navbatida omma tasavvurida “Davlat va islohotlar inson uchun xizmat qiladi” degan kuchli g’oyani gavdalantiradi.



Xulosa qilib aytganda, patos har qanday siyosiy kommunikatsiyada ishonch uyg'otuvchi, harakatga chorlovchi va ijtimoiy munosabatlarni mustahkamlovchi kuchli vosita va markaziy kuchdir. U orqali siyosatchilar o'z nutqlarida ommani faollikka chorlaydi va ular bilan til topishadi. Patos siyosiy ritorikaning shunchaki “bezagi” sifatida tushunilmasligi kerak, balki ijtimoiy reallik va voqelikni shakllantiruvchi ritorik vositadir.

### **References:**

1. Boginskaya, O. (2022). Metadiscourse analysis of New Year's addresses of the Russian President.
2. Charteris-Black, J. (2011). Politicians and Rhetoric: the persuasive power of metaphor.
3. Demirdogen, U. (2010). The roots of research in political rhetoric: An overview of rhetorical approaches.
4. Lakoff, G. (2016). Understanding Trump. Moral Politics: How liberals and conservatives think. Third Edition
5. Marcus, G.E., Neuman, W.R., MacKuen, M. (2000). Affective intelligence and Political Judgement. University hicago press
6. Waldron, J. (2007). Security and liberty: the image of balance. Journal of Political Philosophy.